Nutqning sofligi va badiiy nutq

Xayitboyeva Muazzamxon

Samarqand Davlat Univesiteti Kattaqo'rg'on filiali , Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi talabasi

Fayzullayeva Laylo

Samarqand Davlat Univesiteti Kattaqo'rg'on filiali , Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda o'quvchilarimizning nutqida bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri chet so'zlarning kirib kelishi hisoblanadi. Ba'zi hollarda o'quvchi yoshlar chet so'zlarning ma'nosini bilmasa ham ularni qo'llashmoqda bu esa nutqimizni qashshoqlashishiga olib keladi. Nutqimizning sofligi buziladi. Badiiy nutqqa rioya qilib so'zlashsak o'z tilimizga bo'lgan e'tibor yanada oshadi.

Kalit so'zlar: Nutqning sofligi, noadabiy qatlam, varvarizm, arxaizm, notiq, lisoniy, til.

The annotation: Today, a number of problems arise in the speech of our students. One of the main reasons for this is the introduction of foreign words. In some cases, students use foreign words even if they don't know their meaning, which leads to the impoverishment of our speech. The purity of our speech is disturbed. If we speak according to the artistic speech, the attention to our language will increase even more.

Key words: Purity of speech, non-literary layer, barbarism, archaism, eloquent, linguistic, language.

Анатация: Сегодня в речи наших студентов возникает ряд проблем. Одной из основных причин этого является введение иностранных слов. В некоторых случаях учащиеся употребляют иностранные слова, даже не зная их значения, что приводит к обеднению нашей речи. Нарушается чистота нашей речи. Если мы будем говорить художественной речью, то внимание к нашему языку возрастет еще больше.

Ключевое слово:Чистота речи, нелитературный слой, варварство, архаичность, красноречие, лингвистичность, язык.

KIRISH

Badiiy asar tiliga munosabat, uni badiiy-uslubiy jihatdan o'rganish uzoq tariga ega. Biroq unga jiddiy e'tibor XX asrning 30-yillarida anvha kuchaydi. Jahon va rus adabiyotshunosligida, keyinroq o'zbek adabiyotshunosligida bajarilgan ko'pgina tadqiqotlar buni tasdiqlaydi.

NUTQNING SOFLIGI

Nutqning sofligi deganda uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelish, ya'ni noadabiy qatlamlardan xoli bo'lishi ko'zda tutiladi. Nutqning sofligiga putur yetkazadigan lisoniy unsurlar, ya'ni noadabiy qatlamlarga dialektizmlar, varvarizmlar (chetdan kirgan so'zlarni noo'rin, haddan tashqari ko'p ishlatish) arxaizm kabilar kiradi. Nutqning sofligini ta'minlash uchun uni keraksiz so'z va iboralardan holi bo'lishga erishish lozim. Shuningdek, har bir uslubni o'z o'rnida qo'llash ham nutqning sofligini ta'minaydi. Masalan: A.Qahhorning "Nutq" hajviy hikoyasidagi

qahramon nutqi notabiy va samimiy nutqqa misol bo‘la oladi.: “O‘rtoq rafiqam! Ijozat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunali qilayotganimizga bir yil to‘lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga!” E’tibor bering: suhbatda o‘nlab, yuzlab, kishi emas, faqat ikki kishi er va xotin ishtirok etyapti. Avval xotin bu gaplarni hazil deb o‘ylaydi, “qiyqirib chapak chaldi”. Ammo notiq jiddiy qiyofada nutqni davom ettiradi. “Birinchidan”, “ikkinchidan” deb oilada bir yil davomida ro‘y bergan yutuq va kamchiliklarni sanab o‘tadi va nutqni shunday yakunlaydi: “Shu bilan qisqacha so‘zimni tamom qilib, oilamiz bundan keyin ham sharaflar bilan qoplanajagiga to‘la ishonch bildirishga ijozat bering”. Notiq nutqini tugatgandan keyin yana asliga qaytadi. U o‘zini keng eshituvchilar ommasiga mo‘ljallangan “notiq” deb hisoblaydi, qanday vaziyatda nima gapirishni bilmaydi. Tilning amaliy qonuniyatlarini sayoz tushunadi. Natijada nutqi notabiiy va kulguli chiqadi. Til zargari A.Qahhor ana shunday, o‘z ta’biri bilan aytganda, “bisotidagi bir hovuch so‘zni aylantirib kun ko‘rib yurgan” lektor ustidan kulib. Og‘zaki nutqda ba’zan uchrab turadigan so‘kinish haqorat, qarg‘ish so‘zlari jamiyatimizning axloq me’yorlariga zid hodisa sifatida nutqimiz sofligiga ham salbiy ta’sir qiladi. So‘zlashuv nutqida ba’zan notiq o‘z nutqini nazorat qilmaganligi, bee’tiborligi oqibatida ayrim ortiqcha so‘zlarni takrorlashga o‘rganib qoladi. Xush, demak, masalan, ya’ni so‘zlari shular jumlasidandir.

Bir soatlik nutqda 234 ta “bekorchi” so‘z ishlatilgan. Bunday so‘zlar ham nutq madaniyatiga yot so‘zlardir. Demak, nutq sohibi o‘z nutqini ustida tinimsiz ishlashi, nutqni nazorat qilishi, tilga mas’uliyat bilan yondoshishi lozimdir.

ishlashi, nutqni nazorat qilishi, tilga mas’uliyat bilan yondoshishi lozimdir.

O’quvchilar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf qilish uchun quyidagi foydali topshiriqlarni bajartirib korishimiz kerak.

1 daqiqa ma’lum mavzuda to’xtamastan tutilmastan nutq so’zlashga undash.

Nutqida varvarizm va vulgazmdan foydalangan o’quvchilarga shu so’zning o’zbekcha muqobilini topdirish va nutqida qo’llatish.

She’r yoki g’azallarni ifodali tarzda o’qitish, yoddan ayttirish.

Badiiy nutq

Nutq o‘ziga xos xususiyatlarga ega. U ma’lum aloqani ta’minlash jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon esa suhbatdoshning shaxsi, yoshi, mavqeyi, bilim darajasi va vaziyat bilan bog‘liq. Bu haqda tilshunos olimlarning fikrlari e’tiborlidir. Masalan, professor B.O‘rinboyev «Nutq va notiqlik san’ati» nomli maqolasida quyidagilarni bildiradi: «Har bir nutq ma’lum maqsad bilan so‘zlanib, o‘z g‘oyaviy yo‘nalishiga va estetik kuchga egadir. Bu xususiyatlar nutqning tashqi xarakteriga xosdir. Ba’zan so‘zlashuvchining o‘ziga qaratilgan, talaffuz etilmaydigan nutq ham bo‘ladi. Bunda so‘zlovchi o‘zi bilan gaplashadi. Bunday nutq intellektual bog‘lanishli nutq xarakterida bo‘lishi mumkin. Nutqning turli tiplari uning qo‘llanish doirasi va sosiolingvistik tegishliligi bilan belgilanadi. Til birliklaridan qanday tarzda va qaysi sistema asosida foydalanishga qarab nutq ogzaki va yozma shaklda bo‘ladi. Til vositasida u yoki bu sharoitda aloqa qilish va turli kommunikativ maqsadni amalga oshirish mumkin. Shunga ko‘ra, nutq bir necha xil bo‘ladi: kundalik nutq, ishchan nutq, tantanavor nutq, dialektal nutq, poetik, odobiy so‘zlashuv nutqi, professional nutq, ommaviy nutq, so‘zlashuv nutqi, sahnaviy nutq, folklor nutqi, obraz nutqi, muallif nutqi, personaj nutqi kabilar. Nutq qanday ko‘rinishda bo‘lishidan

qatiy nazar o‘zining ma’lum xususiyatlariga egadir. Bular quyidagi-lardan iborat: 1. Nutq agogikasi. Bunda o‘qiladigan yoki gapiriladi-gan matnning emosional, intellektual mazmuni, ritmik qurilishi yoki tempi hisobga olinadi. 2. Har bir nutqda o‘zining harakati bo‘lib, bunda nutqning ritmik-sintaktik tomondan shakllanishida paydo bo‘luvchi davrning dinamik xususiyati nazarda tutiladi. Nutq harakati uning tempini ham belgilab beradi. Nutqning tempi tez bo‘lsa, nutqdagi so‘zlarda reduksiya hodisasi yuz beradi. Nutq tempi sekin bo‘lsa, so‘zlar to‘liq shaklda keladi. Nutq ham kichik-kichik bo‘laklarga ajraladi. 3. Nutq tildan farqli holda o‘z birligiga egadir. Tabiiy qonuniyat asosida nutq oqimida paydo bo‘luvchi bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmasi va gap nutq birligi sanaladi. Nutq birliklari intonasiya va pauzalardan to‘g‘ri foydalana bilish orqaligina ajraladi. 4. Nutq elementlari ketma-ket joylashtiriladi. Ketma-ket joylashtirilgan nutq elementlari davr nuqtai nazaridan turli davrlilikni ifodalaydi. Bunga nutq yo‘nalishi deb ataladi. Tilning nutqdan farqli tomoni shundaki, til sistemasida bir davrlilik mavjuddir. Turli davrlikni ifodalovchi nutq o‘z momentiga egadir. Keyingi fikr mazmuniga ta’sir etishi nuqtai nazaridan paydo bo‘ladigan shart-sharoit nutq momenti deyiladi. 5. Nutq momenti ta’sirida nutqiy muomalada amalga oshiriladigan sharoit nutq situasiyasi deyiladi. Ko‘pincha, ma’lum nutqiy sferada til uslublarini tipik qo‘llash uchun harakat qilinadi. Bunga nutq uslubi deyiladi. Nutq uslubi: poetik nutq uslubi, kitobiy so‘zlashuv nutq uslubi, oddiy so‘zlashuv nutq uslubi, so‘zlashuv nutq uslubi kabilarga ajratiladi. To‘liq nutq uslubi hyech bir kamchilikka ega bo‘lmagan nutq haqida nutq madaniyati bahs etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Nutq madaniyati, til normasi va adabiy norma tushunchalari umumlingvistik tushunchalardir. L.I.Skvorsov nutq madaniyati nazariyasining asosini til normasi tashkil qilishini qayd etar ekan, ularning til taraqqiyotini bir-biri bilan bog‘liq holda belgilashini alohida ta'kidlaydi 1. Nutq madaniyati ko‘p ma'noli tushunchadir. Nutq madaniyati tadqiqotchilaridan K.S.Gorbachevich, G.O.Vinokurning nutq madaniyati tushunchasi “nutqning to‘g‘riligi, ongli va tabiiyligini ifodalovchi tushuncha” nazariyasidan kelib chiqib, nutq madaniyati birinchidan, nutqning to‘g‘riligini talab qiluvchi, til normasiga amal qiluvchi; ikkinchidan, fikrning ifodaviyligi va ifodaning ko‘proq samaradorligini o‘zida qamrab oluvchi soha ekanligini ta'kidlaydi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz kerakki, nutqning aniq va ravshan bo‘lishi, avvalo, so‘zdan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq. Badiiy nutq adabiy tilga, o‘z navbatida adabiy til badiiy nutqqa to‘xtovsiz ta'sir etib boradi. Badiiy nutq jarayonida vujudga kelgan yangi so‘zlar yoki ayrim shevalardan olingan so‘zlar faollashib adabiy tilgao‘tadi, shuningdek, til taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda adabiy tilga kirib kelgan lug‘aviy vositalar badiiy matnlarda ham qo‘llanila boshlaydi. Nutqning turli shakllaridan foydalanish orqali qahramonlar xarakteri, portreti, fe’l-atvori mahorat bilan ochib beriladi. Asarda dialogik nutqlarning eng sara namunalarini yaratish bilan birga ijodkor estetik tuyg‘ularini uyg‘unlashtiradi.